

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
TIBBIY BILIM ASOSLARI KAFEDRASI

TIBBIY BILIM ASOSLARI,
ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISH

fanidan
bajaradigan amaliy ishlar bo'yicha

o'quv - uslubiy qo'llanma

Qarshi davlat universiteti barcha yo`nalishlari talabalari uchun

TUZUVCHI: KATTA O'QITUVCHI M. XO`JANOV

QARSHI – 2012

1-MAVZU: KIRISH. FAVQULODDA VAZIYATLARDA FUQARO MUHOFAZASI VA FUQARO MUHOFAZASI TIBBIY XIZMATINING VAZIFALARI.

Mashg'ulotning maqsadi:

1. Kirish. Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi va fuqaro muhofazasi tibbiy xizmatining vazifalari haqida tushuncha berish.
2. Mashg'ulotni bajarish tartibi bilan tanishtirish.
3. Mavzuga taalluqli jadvallar, rasmlar, asboblari, yordamchi materiallarni ko'rsatib tushuntirish.

Ishni bajarish tartibi:

Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi va fuqaro muhofazasi tibbiy xizmatining vazifalari.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, XX asr poyonida xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammoga aylanib qoldi. Chunki ishlab chiqarish jarayonining misli ko'rilmagan yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta'minlanishi, tabiiy rivojlanishdagi ayrim noxush vaziyatlarning murakkablashuvi aholi salomatligi, atrof-muhit tozaligi va iqtisodning barqaror rivojlanishiga tahdid solib turibdi. Shu sababdan O'zbekistonda o'z mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardanoq eng muhim vazifalar qatoridan mamlakat aholisi va hududini turli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari o'rin olgan. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida ta'kidlaganidek: Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan.

Fuqaro muhofazasi – umumdavlat mudofaa siyosatlaridan biri bo'lib, u har qanday favqulodda holatlarda fuqarolarni, xalq xo'jaligi tarmoqlarini muhofaza qilishda, ularning muttasil ishlashini ta'minlashda hamda qutqarish va tiklash ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi.

Favqulodda vaziyatlar (FV) – ma'lumki hududda yuz bergan falokat, halokat va boshqa turdagi ofatlar natijasida kishilarning o'limiga, salomatligiga, tabiiy muhitga sezilarli moddiy zarar yetkazuvchi, odamlarning turmush sharoitini buzilishiga olib keladigan holatdir.

Favqulodda vaziyatlar tarqalish tezligiga ko'ra:

- a) **Tasodifiy FV** – yer silkinishi, portlash, transport vositalaridagi avariya;
- b) **Shiddatli FV** – yong'inlar, zaharli gazlar otilib chiquvchi portlashlar;
- d) **Mo'tadil FV** – suv toshqinlari, vulqonlar otilishi, radioaktiv moddalar oqib chiquvchi avariya;
- e) **Ravon FV** – sekin-asta tarqaluvchi xavflar: qurg'oqchilik, epidemiyalar, tuproqni, suvni kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi.

Shikastlanishlar soniga va moddiy yo'qotishlar miqdoriga qarab favqulodda vaziyatlar:

1. **Lokal** (ob'yekt miqyosidagi) (100 dan ortiq bo'lmagan odam hayot sharoiti buziladi).
2. **Mahalliy** (10 dan ortiq 500 dan kam bo'lmagan odam hayot sharoiti buziladi).
3. **Respublika** (500 dan ortiq odam hayot sharoiti buziladi).
4. **Transchegaraviy** (oqibati mamlakat tashqarisiga chiqadi yoki aksincha).

Favqulodda vaziyatlar sababi va kelib chiqish manbaiga ko'ra:

1. Tabiiy tusdagi FV. 2. Texnogen tusdagi FV. 3. Ekologik tusdagi FV.

Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarga:

1. Geologik xavfli hodisalar: zilzila, yer ko'chishi tog' o'pirilishi va hokazo.
2. Gidrometeorologik xavfli hodisalar: suv toshqinlari, seller, qor ko'chkilari, kuchli shamollar, jala va boshqalar.
3. Favqulodda epidemiologik, epizootik, epifitotik vaziyatlar: xavfli infeksiyalar, hayvonlar, o'simliklarni nobud bo'lishi.

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarga:

1. Transportdagi avariylar va halokatlar.
2. Kimyoviy xavfli ob`yektlardagi avariylar.
3. Yong`in-portlash xavfi bo`lgan ob`yektlardagi avariylar.
4. Energetika va kommunal tizimlardagi avariylar.
5. Bino va inshootlarning qulab tushishi bilan bog`liq avariylar.
6. Radioaktiv va boshqa xavfli ekologik jihatdan zararli foydalanish yoki saqlash bilan bog`liq avariylar.
7. Gidrotexnik inshootlardagi halokatlar va avariylar.

Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarga:

1. Quruqlik holatining o`zgarishi bilan bog`liq vaziyatlar (ko`chkilar, yer osti va ustki qismiga ishlov berish, o`pirilish, siljish, tuproqni ifloslanishi).

2. Atmosfera tarkibi va xossalarini o`zgarishi bilan bog`liq vaziyatlar.

3. Gidrosfera holatining o`zgarishi bilan bog`liq vaziyatlar.

Fuqaro muhofazasining asosiy va muhim vazifalaridan biri tibbiy xizmat ko`rsatishdir.

Tibbiy xizmatning asosiy vazifalari shikastlangan, zararlangan odamlarga o`z vaqtida tibbiy xizmat ko`rsatish, davolab ularni mehnat faoliyatini tiklash, invalidlik va o`limni kamaytirish hamda yuqumli kasalliklarning tarqalishiga yo`l qo`ymaslik maqsadida davolash-profilaktika, sanitariya-gigiyena chora-tadbirlari va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishdan iborat.

2-MAVZU: ZARARLANISH MANBALARINING TIBBIY - TEXNIK TA`RIFLANISHI.

Mashg`ulotning maqsadi:

1. Favqulodda vaziyatlarni aniqlab beradigan ko`rsatkichlar haqida tushuncha berish.
2. Favqulodda vaziyatlarda shikastlanish uchoqlarining ta`riflanishi, favqulodda vaziyatlarning kechish davrlari haqida tushuncha berish.
3. Mashg`ulotni bajarish tartibi bilan tanishtirish.
4. Mavzuga taalluqli jadvallar, rasmlar, asboblari, yordamchi materiallarni ko`rsatib tushuntirish.

Ishni bajarish tartibi:

Favqulodda vaziyatlarda shikastlanish uchoqlarining ta`riflanishi. Favqulodda vaziyatlarning kechish davrlari.

Har qanday favqulodda vaziyatlar 8 ta ko`rsatkich bo`yicha aniqlanadi:

1. Favqulodda vaziyatning nomlanishi (zilzila, suv toshqini, dushman hujumi, yong`in, yuqumli kasallikning tarqalishi).
2. Favqulodda vaziyatning vujudga kelish sababi.
3. Favqulodda vaziyat yetkazishi mumkin bo`lgan zarar.
4. Favqulodda vaziyatning odamlarni shikastlash, zararlash omillari.
5. Favqulodda vaziyatning qaltislikni oshiruvchi omillari.
6. Favqulodda vaziyatni oldindan bilish mumkinligi (monitoring, bashorat, ogohlantirish).
7. Favqulodda vaziyatni bartaraf qilish va barcha zaruriy ishlarni bajarish.
8. Moddiy zararni aniqlash (bevosita va bilvosita).

Favqulodda vaziyatning oqibati.

Favqulodda vaziyatning oqibatini asosiy turlari: odamlarning kasallanishi, zaharlanishi, shikastlanishi (jarohatlanishi), ruhiy ta`sirlanish, inshootlarning buzilishi va boshqalar.

Favqulodda vaziyatning zararli omillari ta`sir qilgan hududda joylashgan aholi, hayvonlar, o`simliklar, moddiy boyliklarning barchasi "*Shikastlanish o`chog`i*" deyiladi.

Shikastlanish o`chog`i quyidagilarga bo`linadi:

1. Oddiy shikastlanish o`chog`i.
2. Murakkab shikastlanish o`chog`i.

Oddiy shikastlanish o`chog`i deb faqat bir shikastlovchi omil ta`sirida hosil bo`ladigan o`choq tushuniladi. Masalan: portlash yoki yong`in natijasida bitta yoki bir nechta inshootlarning zararlanishi, kuyishidan ma`lum sonli odamlar shikastlanadi.

Murakkab shikastlanish o`chog`i deganda, bir necha shikastlovchi omillarning ta`siri tushuniladi. Masalan: kimyo korxonasidagi portlash shu hududdagi binolarning buzilishiga, odamlarning zaharlanishi va shikastlanishidan tashqari atrof-muhit ham zararlanadi. Yer silkinishi, kuchli bo`ron inshootlarning buzilishi bilan birga suv toshqini, yong`in, elektr tarmoqlarining izdan chiqishi, zaharli gazlarning atmosferaga tarqalishi natijasida ko`plab odamlarning va hayvonlarning zaharlanishi va katta miqdordagi shikastlanishga olib kelishi mumkin.

Favqulodda vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi sabablar:

- tashqi tabiiy omillar: zilzila, suv toshqini, bo`ronlar va hokazo;
- inshootlarni, materiallarni yemirilishi, zanglashi, chirishi, fizik-mexanik ko`rsatkichlarning pasayishiga, ko`plab odamlar hayvonlarni shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Favqulodda vaziyatlarning kechish davrlari.

Favqulodda vaziyatlar vujudga keltirgan sababidan qat`iy nazar 4 davrda kechadi:

1. Uyg`onish, paydo bo`lish davri.
2. Rivojlanish, avj olish davri.
3. Eng yuqori darajaga yetish davri.
4. Pasayish, tugash davri.

- *uyg`onish davrida* favqulodda vaziyatning yuzaga kelishiga zamin yaratiladi;
- favqulodda vaziyatning *rivojlanish, avj olish davrida* vujudga keladigan o`zgarishlarda inson omili asosiy o`rinni egallaydi, ya`ni 60 % dan ortiq avariya inson xatosi tufayli ro`y berganligini ko`rsatadi;

- favqulodda vaziyatlarning *eng yuqori darajasiga yetish davrida*, odamlarga, atrof-muhitga xavf soluvchi tabiiy va texnogen ta`sir to`xtatishi bilan, uning oqibatlarini bartaraf etish tadbirlari amalga oshiriladi. Favqulodda vaziyatning sababini o`z vaqtida aniqlash, uning oldini olishga, yetkazishi mumkin bo`lgan zararni kamaytirishga, oqibatini tezroq bartaraf etishga yordam beradi.

3-MAVZU: RADIATION, KIMYOVIY VA BIOLOGIK NAZORAT USULLARI.

Mashg`ulotning maqsadi:

1. Radiation, kimyoviy, biologik nazorat usullari haqida tushuncha berish.
2. Mashg`ulotni bajarish tartibi bilan tanishtirish.
3. Mavzuga taalluqli jadvallar, rasmlar, asboblarni ko`rsatib tushuntirish.

Ishni bajarish tartibi:

Radiation, kimyoviy, biologik nazorat usullari.

Radiatsiyaviy holat va ularning xavfsizligi bo`yicha O`zbekiston Respublikasining 2000 yil 31-avgustda "Radiatsiyaviy xavfsizlik" to`g`risidagi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi insonlar hayoti, sog`lig`i, mol-mulki, shuningdek, atrof-muhitni ionlashtiruvchi nurlanish, radioaktiv ifloslanishlarning zararli ta`sirlaridan muhofaza qilishni ta`minlash bilan bog`liq masalalarni tartibga solishdan iborat.

Qonunga radiatsiyaviy xavfsizlikka doir yangi tahrirdagi tushunchalar kiritilgan. Jumladan,

Ionlashtiruvchi nurlanish – radioaktiv parchalanishda, yadroviy yemirilishda hosil bo`ladigan va muhitga ta`sir etish chog`ida har xil qutbli ionlarni hosil qiladigan nurlanish.

Ionlashtiruvchi nurlanish manba – oʻzidan ionlashtiruvchi nurlarni chiqaruvchi qurilma yoki radioaktiv modda.

Kuzatuv zonasi – radiatsiyaviy monitoring oʻtkaziladigan sanitariya – muhofaza zonasidan tashqaridagi hudud.

Radiatsiyaviy avariya – uskuna nosozligi, xodimlarning xatti-harakatlari tabiiy va texnogen xususiyatli FV lar tufayli kelib chiqqan, fuqarolarning belgilangan meʼyorlardan koʻproq nurlanish olishga yoki atrof-muhitning radioaktiv ifloslanishiga olib keluvchi yoxud ionlashtiruvchi nurlanish manbai ustidan boshqaruvning izdan chiqishi.

Radiatsiyaviy xavfsizlik – fuqarolar va atrof-muhitning ionlashtiruvchi nurlanishning zararli taʼsiridan muhofazalanganlik holati.

Yadroviy xavfsizlik – yadroviy materialdan xavfsiz foydalanishni taʼminlovchi chora-tadbirlar majmui.

Radiatsiyaviy holat deganda, joylarning radioaktiv zararlanish darajasi va oʻlchami tushunilib, bu aholining yashashiga hamda xalq xoʻjaligi ishlab chiqarish obʼyektlarida ishlashlariga taʼsir etadi. Joylarning radioaktiv zararlanish oʻlchovi va darajasi maʼlum hududdagi yadro portlashining soniga, quvvatiga, turlariga hamda portlash vaqtidagi shamolning tezligiga bogʻliqdir. Radiatsiya darajasi 0,5 R/s ga teng boʻlgan joylarni radioaktiv moddalar bilan zararlangan hudud deb hisoblanadi. Vaqt oʻtishi bilan radioaktiv darajasi kamayib boradi.

Radiatsiyaviy holatni baholash deganda, joylarni radioaktiv zararlanganlik tavsifnomasi va ularning fuqarolarga, texnika, qurilish va imoratlarga hamda hayvon va oʻsimliklarga taʼsiri tushuniladi.

Tavsifnomaga quyidagilar kiradi:

- obʼyekt hududidagi ionlashtiruvchi nurlanishni xavflilik darajasi;
- radioaktiv modda bilan zararlangan hudud oʻlchami;
- fuqarolar va hayvonlarning nurlanish darajasi;
- texnika, tuproq, oʻsimlik, oziq-ovqat, suv, bino va inshootlarning radioaktiv zararlanganlik darajasi;
- fuqarolarga va hayvonlarga ionlashtiruvchi nurlanishning xavflilik darajasi;
- radiatsiya xavfsining xalq xoʻjalik tarmogʻiga qanchalik zarar yetkazganlik darajasi.

Kimyoviy holatni aniqlash va baholash.

Kimyoviy holat deb, atrof-muhitga kuchli taʼsir etuvchi zaharli moddalarni odamlarga, hayvonlarga, suv va boshqa obʼyektlarga taʼsir etish darajasini aniqlash tushuniladi.

Kimyoviy holatni baholashda quyidagi maʼlumotlarga tayaniladi:

- zaharli moddalarning turi va uning ishlatilgan vaqti;
- zaharli moddaning ishlatilish vositasi;
- zaharli moddaning ishlatilgan joyi;
- shamolning tezligi va yoʻnalishi;
- havo va yerning harorati;
- kimyoviy shikastlanishning miqyosi va tavsifini aniqlash;
- havoning turgʻunlik darajasi (inversiya, izotermiya, konveksiya);
- fuqarolarning himoyalaniish darajasi.

Kimyoviy holatni baholashda havoning turgʻunlik darajasini bilish muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda havoning vertikal turgʻunligi uch darajaga boʻlinadi:

1. Inversiya.
2. Izotermiya.
3. Konveksiya.

Inversiya - quyosh botishiga taxminan 1 soat qolganda vujudga keladi va quyosh botgandan 1 soatlar oʻtgach u parchalanib ketadi. Inversiyada havoning pastki qatlami yuqori qatlamidan sovuqroq boʻladi, bu esa zaharlangan havoni yuqoriga tarqalishiga qarshilik qiladi va zaharlangan havoning pastki qatlamda uzoqroq saqlanishiga qulay sharoit yaratadi.

Izotermiya - bunda havo muvozanati barqaror boʻladi. U koʻproq bulutli havoga xos.

Konveksiya – odatda quyosh chiqishidan 2 soat keyin hosil boʻladi va quyosh botishidan 2-2,5 soat oldin buziladi. Bu koʻproq, yozgi ochiq kunlarda kuzatiladi.

Konveksiyada havoning pastki qatlami yuqori qatlamga nisbatan issiq boʻladi. Bu esa zaharlangan havoni yuqori qatlamga tez tarqalishiga olib keladi.

Dozimetrik asboblari, ishlash tamoyili va vazifalari.

Joylarda radiatsiya darajasini, radioaktiv moddalarni aniqlashda va tashqi muhit obʼyektlarining radioaktiv ifloslanishini oʻlchashda DP-5 tupidagi dozimetrlardan foydalaniladi. Bunda radiatsiya taʼsiri va yutilgan nurlanish dozasi DP-22 V, DP-24, DP-23 A, ID-1, ID-2 dozimetrlar bilan oʻlchanadi.

Dala rentgenometrlari DP-5 A va doza darajasini oʻlchovchi DP-5 B, DP-5 V har xil predmetlarning gamma-nurlanish boʻyicha radioaktiv zararlanish va gamma radiatsiya darajasini oʻlchash uchun moʻljallangan. Gamma nurlanishning taʼsir dozasi rentgen soatlarda (r/s) yoki millirentgen/soatlarda (mr/s) oʻlchanadi.

DP-5 A, DP-5 B, DP-5 V asboblari minus 40⁰ dan plus 50⁰ gacha haroratda va 65 foiz nisbiy namlik boʻlganda oʻlchashni taʼminlaydi.

Asbob komplektiga 2 ta qayish, qini bilan, nazorat manba (stronsiy-90 va ittiriy-90), uzatuvchi shlanga, akkumulyatorga ulanuvchi kabil, element uskunalar yigʻmasi, telefon, hujjat joylashtiradigan qutilar kiradi. Oʻlchash diapazoni 0,05 r/s dan 200 r/s gacha tashkil qiladi. Knopka strelkani qayta “O” ga keltirish uchun xizmat qiladi. Rejim ruchkasini soat strelkasiga qarshi buraladi va poddiapazonlarni “выкл” holatiga qoʻyiladi.

Shaxsiy dozimetrlarga DP-22 V, DP-24, ID-1, ID-11 kiradi.

DP-22 V jamlamasiga choʻntakda olib yuruvchi 50 ta toʻgʻri koʻrsatuvchi DKP-50 A dozimetrlar, DP-24 komlektida 5 ta shunday dozimetrlar boʻladi. Bu jamlama ham – 40⁰ dan +50⁰ gacha ishlash qobiliyatiga ega. DKP-50 A dozimetri huddi avtoruchka shaklida.

Kimyoviy razvedka asboblari.

Hozirgi vaqtda zaharli moddalarni aniqlash uchun kimyoviy razvedkaning qoʻshin asbobi-VPXR (военнополевой химической разведка), tibbiy va veterinariya xizmatlari kimyoviy razvedka asbobi – PXR – MV, tibbiy dala kimyosi laboratoriyasi – MPX lar ishlatiladi.

Zaharli moddalarni kimyoviy razvedka dala asboblari bilan aniqlash, soʻrilayotgan zaharlangan havo oqimi reaktiv orqali oʻtganda uning rangini oʻzgarishi tamoyiliga asoslangan.

VPXR zarin, zoman, iprit, fosgen, difosgen, sinil kislota, xlorian, Vi-iks gazlarning havoda maʼlum hududlarda, texnikada borligini aniqlashga moʻljallangan. Havoda sinil kislota boʻlsa indikatorli ampulaning pastki qatlamida qizgʻish-siyoh rang, fosgen yoki difosgen boʻlsa, ustki qatlam qoramtir-koʻk rangda boʻladi. Havoda iprit boʻlsa jigarrang kuzatiladi.

Meditsina – veterinariya xizmatlari kimyoviy razvetka asbobi (PXR-MV) suvda, oziq-ovqatlarda, havoda, har xil predmetlarda zarin, zoman, Vi-iks gazlarini, iprit, xlorian, sinil kislotasini aniqlash uchun moʻljallangan.

PXR-MV asbobi suv, tuproq va boshqa materiallardan yuqumli kasallikning qoʻzgʻatuvchilar turini aniqlash, ularning namunalarini laboratoriyaga joʻnatishga imkon beradi.

4-MAVZU: AHOLINI HIMOYA QILISH VOSITALARI.

Mashg'ulotning maqsadi:

1. Aholini himoya qilish vositalari haqida tushuncha berish.
2. Mashg'ulotni bajarish tartibi bilan tanishtirish.
3. Mavzuga taalluqli jadvallar, rasmlar, asboblari, yordamchi materiallarni ko'rsatib tushuntirish.

Ishni bajarish tartibi:

Aholini himoya qilish vositalari.

Aholini tabiiy ofatlar, avariya, halokatli oqibatlardan hamda qirg'in qurollari ta'siridan, ularning ikkilamchi ta'siridan saqlash uchun himoya vositalari ya'ni boshpanalar zarur bo'ladi.

Himoya inshootlari quyidagilarga bo'linadi:

1. Yo'nalishiga ko'ra: fuqarolarni saqlashga, boshqaruv tizimlarini va tibbiy shoxobchalarni joylashtirishga mo'ljallangan.
2. Joylashgan o'rniga ko'ra: alohida joylashgan (metropolitenlar va tog'-kon qurilishlari).
3. Qurilish muddatiga ko'ra: oldindan qurilgan va tez quriladigan.
4. Himoyalash darajasiga ko'ra: boshpana, RSB (radiatsiyadan saqlovchi boshpana) va oddiy boshpana (ochiq yoki yopiq yerto'lalar).

Boshpana – odamlarni hamma ta'sir faktorlaridan (yuqori harorat, radiokativ, portlovchi va kuchli zaharli moddalar), inshootlar buzilganda ularni qismlaridan hamda qirg'in qurollari va oddiy hujumkor qurollar ta'siridan saqlaydi.

Boshpanalar odamlarni qabul qilish soniga ko'ra bir necha turga bo'linadi: kichik (150-300 kishi), o'rtacha (300-600 kishi), katta (600 dan ko'p) va boshqalar.

Boshpanalar qurishda quyidagi talablar qo'yiladi:

1. 3 sutkadan kam bo'lmagan muddatda saqlash.
2. Suv bosmaydigan joylarda qurish.
3. Oqar suvlardan, kanalizatsiya kommunikatsiyalaridan hamda qurilish kommunikatsiyalaridan uzoqroq joylarda qurish.
4. Kirish va chiqish eshiklarini bo'lishi.

Boshpana shamollatgich, sanitar-texnik jihozlar, havodagi zaharli moddalarni, radioaktiv birikmalarni va biologik vositalarni tozalovchi uskunalaridan iborat bo'lishi kerak.

Boshpana asosiy va qo'shimcha xonalardan tashkil topadi.

Asosiy xonalarga – odamlar, boshqaruv tizimlari, tibbiy xizmat tizimlari joylashtiriladi.

Qo'shimcha xonalarga - jihozlar, asbob-uskunalar, oziq-ovqatlar, suv va boshqa kerakli vositalar joylashtiriladi.

Boshpana bir necha bo'limlardan tashkil topib, har biriga 50-75 odam sig'ishi kerak. Har bir odamga 0,5 m² joy to'g'ri kelishi ko'zda tutiladi.

Boshpanalar filtrlaydigan, havo almashtiradigan asbob-uskunalar bilan jihozlanadi. Ularda elektr, aloqa, suv hamda kanalizatsiya va isitish tarmoqlari bo'lishi kerak. Boshpanada dozimetrlar, kimyoviy razvedka jihozlari, himoyalovchi vositalar, o't o'chirish qurollari, oziq-ovqatlar, suv zahirasi va dori-darmonlar bo'lishi shart.

Radiatsiyadan saqlovchi boshpana (RSB) – germetik bo'lmagan himoya inshooti bo'lib, favqulodda vaziyatlarda fuqarolar o'sha yerda saqlanadilar.

RSB larning saqlash xususiyati – radiatsiya (j) nurini susaytirish koeffitsiyenti (kj) bilan aniqlanadi va u qanday materialdan (suv, yog'och, tuproq, g'isht blok, shisha, beton, temir, qurg'oshin) qurilganligiga va uning qalinligiga bog'liq. Unda havo almashtirgich jihozi bo'lmasligi tufayli odamlar uzoqroq muddat saqlana olmaydi (4-5 soat saqlanishi mumkin).

RSB larga odamlar birlamchi tozalashdan o'tkazilib so'ngra kirgiziladi.

Oddiy saqlovchi boshpana – yerto'la, yerto'la ochiq yoki yopiq tipda bo'ladi. Ochiq yerto'la radioaktiv zararlanishni 2-3 marta, yopiq yerto'lalar esa 40-50 marta kamaytiradi. Yerto'la chuqurligi 200 sm, kengligi 120 sm, pastki qismi esa 80 sm, uzunligi odamlar soniga qarab tayyorlanadi.

Ochiq yerto`lalarda odamlar himoya vositalaridan foydalangan holda saqlanadilar.

Yakka tartibda saqlovchi vositalar inson tanasiga, ichki a`zolariga, terisiga, kiyimlariga radioaktiv moddalarni, zaharli birikmalarni va biologik tumanlarni tushishidan saqlaydi. Yakka tartibda saqlovchi vositalar qo`llanilishiga ko`ra: terini saqlovchi, nafas a`zolarini, yuz-ko`zni saqlovchi turlarga bo`linadi.

Terini saqlovchi vositalar. Ular filtrlovchi va izolyatsiyalovchi turlarga bo`linadi. Izolyatsiyalovchi terini saqlovchi vositalar havo o`tkazmaydigan rezinali elastic materiallardan (masalan PVX) tayyorlanadi. Izolyatsiyalovchi terini saqlovchi vositalarga: kombenzon va kostyum, yengil himoya kostyumi L-1 va umumqo`shin himoya jamlamasi kiradi (kombenzon bitta qilib tikilgan kurtka, shim va bosh kiyimdan tashkil topgan, bunda rezina oyoq kiyimi va rezina qo`lqop ham bo`ladi).

Nafas a`zolarini saqlovchi vositalar.

Nafas a`zolarini saqlovchi vositalarga gazniqoblar (yuz-ko`zni, nafas yo`llarini himoya qiladi), respiratorlar, matoli niqoblar, paxta-dokali bog`ichlar kiradi.

Gazniqoblar filtrlovchi va izolyatsiyalovchi turlarga bo`linadi. Filtrlovchi gazniqoblar: GP-5, GP-5 m, GP-7, GP-7 V, bolalar uchun PDF – Sh, PDF-D, PDF-2 Sh va KZD (Unda niqob va filtrlovchi quti mavjud). Ular turli o`lchamli bo`ladi.

Respirator niqobida 3 ta klapan bo`lib, 2 tasi nafas olish, 1 tasi nafas chiqarish uchun xizmat qiladi.

Yakka tartibdagi tibbiyot vositalari.

Ionlashtiruvchi nurlardan, zaharlovchi moddalardan, bakterial vositalardan hamda kuyishdan saqlashda shaxsiy (ShD-2) dori qutildan foydalaniladi. Unda quyidagilar joylashtirilgan:

1. Og`riq qoldiradigan shprints – tyubik.
2. Fosfororganik zaharli moddalarga qarshi (taren – 6 tabletkasi).
3. Bakteriologik vositalarga qarshi (tetratsiklin gidrokslor).
4. Biologik ta`sirlarga qarshi (sulfodemitoksin).
5. Radiosaqlovchi vositalar № 1 (sistamin), № 2 (kaliy yodid).
6. Qusishga qarshi vosita (etaperazin).

Kimyoviy zaharlovchilarga qarshi yakka tartibdagi paket (ShKP-8). Degazatsiya qiluvchi eritma.

5-MAVZU: ODAMLARGA NISBATAN SANITARIYA TADBIRLARINI O`TKAZISH. SUV, OZIQ-OVQAT, TIBBIY MULKNI ZARARSIZLANTIRISH, HIMOYA TADBIRLARI.

Mashg`ulotning maqsadi:

1. Sanitariya tadbirlari haqida tushuncha berish. Suv, oziq-ovqatlarni zararsizlantirish va himoya qilish usullari bilan tanishtirish. Tibbiy mulkni zararsizlantirish.
2. Mashg`ulotni bajarish tartibi bilan tanishtirish.
3. Mavzuga taalluqli jadvallar, rasmlar, asboblari, yordamchi materiallarni ko`rsatib tushuntirish.

Ishni bajarish tartibi:

Odamlarga nisbatan sanitariya tadbirlarini o`tkazish.

Odamlarga nisbatan sanitariya tadbirlarini o`tkazish omili maxsus qayta ishlov berish usulining asosini tashkil etib, u fuqarolarni radioaktiv, zaharlovchi moddalar va bakterial tumanlar bilan zararlanishining oldini olishda qo`llaniladigan omillardan tashkil topgan.

Sanitar qayta ishlash, qisman va to`liq turlarga bo`linadi. Qisman sanitar qayta himoya vositalari ochiq qolgan terini mexanik usulda tozalash hisoblanadi.

**To`liq sanitar qayta ishlash** – tana a`zolarini zararsizlantiruvchi usullarni qo`llash (yuvish, dezinfeksiya qilish) tushuniladi. Bu barcha tana a`zolarimizni, kiyim-kechak, himoya vositalari va boshqalarni zararsizlantirish maqsadida qo`llaniladi.

To'liq sanitar qayta ishlash omili maxsus qurilgan yuvinish shaxobchalarida amalga oshiriladi. Bunda fuqarolar bir tomondan kirib kiyim-kechak, himoya vositalarini yechib, yuvinish-tozalangach, ikkinchi tomondan dozimetrik kimyoviy tekshiruvdan o'tib, so'ngra toza kiyim-kechak kiyishadi va ikkinchi dozimetrik ko'rikdan o'tadi.

Zararlangan kiyimlar, himoya vositalari, maxsus usullar yordamida zararsizlantiriladi.

Shikastlangan hududdan chiqishda yuqorida aytilgan muolajalar yuqori saviyada o'tkazilsa zararlanish miqyosi shuncha kichik va talofatlarga uchrashning oldi olingan bo'ladi.

Suv, oziq-ovqat, tibbiy mulkni zararsizlantirish va himoya qilish.

Suv, oziq-ovqat, donlarni saqlash omili bu tashqi muhitdan ularni izolyatsiyalash hisoblanadi.

Uy sharoitida oziq-ovqatlarni saqlash uchun germetik saqlovchi idishlardan foydalaniladi. Masalan, non, qandolat mahsulotlari bir necha qavat qog'oz bilan o'ralib, polietilen xaltachada yoki kostryulkada saqlanadi. Un, shakar va ulardan tayyorlanadigan mahsulotlar ham polietilen xaltachalarda saqlanadi. Margarin, sariyog', hayvon yog'lari shisha yoki metal idishlarda og'zi yaxshi yopilgan holatda saqlanadi. Sabzavot mahsulotlari yog'och yoki faner yashiklarda, ularni zich materiallar bilan o'ralgan holda saqlanadi. Qishloq joylarida yuqoridagi mahsulotlar ko'p bo'lganligidan, ular asosan omborlarda, yerto'lalarda qadoqlangan holda saqlanadi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarining yemishlari, silos, xashaklar o'ralarda yoki usti yopiq qurilmalar tagida yaxshi o'ralgan holatda saqlanadi.

Suvni zararlanishdan saqlash eng muhim va eng mushkul vazifalardan hisoblanadi. Suv bilan ta'minlovchi korxonalarda suvni tozalash va zararsizlantirish jarayonlari maxsus tozalash inshootlarida olib borilib, iste'molchilarga germetik ravishdagi quvurlar orqali tarqatiladi. Shu sababdan bunday tizimlarda suvni zararlanishi kuzatilmaydi, faqat quvurlar, tozalash inshootlari buzilgandagina zararlanishi mumkin.

Qishloq joylarida ba'zan quduqlardan foydalaniladi, ularning atrofi ochiq bo'lganligidan radioaktiv, kimyoviy va biologik moddalar suvni zararlashi mumkin. Bunday quduqlarni zararlanishidan saqlashda quduq atrofi 1-1,5 metr diametrdagi, 20 sm qalinlikdagi tuproq olib tashlanib, uning o'rniga sof tuproqdan to'kiladi. Quduq atrofi ikki qavat taxta bilan yaxshilab mustahkamlanadigan qilib jihozlanadi. Faqat bitta chelakdan foydalaniladi.

Uy sharoitida suv termostatlarda, grafinlarda va og'zi yaxshi yopiladigan idishlarda saqlanadi. Saqlanadigan suvning hajmi faqat ovqat tayyorlash uchun har bir odam boshiga 3-5 litr bo'lishi kerak. Bulardan tashqari toza suv yuvish, oziq-ovqat mahsulotlarini yuvinish uchun ham ishlatiladi. Shularni hisobga olgan holda zararlanmagan suvlar zahiraga olib qo'yiladi.

Uylarning ichida germetik idishlarda saqlangan oziq-ovqatlarni dezaktivatsiya qilish faqat idish usti suv bilan yuvib tozalanadi, qog'oz va boshqalarda saqlanadigan mahsulotlar tozalanganda, oldin idish latta bilan artiladi, suv bilan yuvib quritiladi. Ustidagi qog'oz qurigandan keyin ichidagi mahsulot toza idishga solinadi va dozimetrik ko'rikdan o'tkaziladi.

Germetik bo'lmagan idishlarda saqlangan mahsulotlar (go'sht, pishloq, margarin, sariyog') ni dezaktivatsiya qilishda o'sha mahsulotlarning sirtqi qavatini (3 mm gacha) kesib tashlanadi. Suyuq mahsulotlarni (yog' va shunga o'xshash) cho'ktirish orqali tozalanadi. Sutlar qatiqqa aylantiriladi.

Suvni esa filtrlash orqali tozalash mumkin. Quduqdagi suvlarni tozalashda ichidagi suv bir necha marta olib tashlanadi hamda atrofidagi tuproqlar (5-10 sm qalinlikda) olib tashlanadi. Agar ba'zi mahsulotlarni dezaktivatsiya qilib bo'lmasa, ularni bir joyga yig'ib, tabiiy zararsizlantirishga qo'yiladi.

Agar yuqorida aytilgan mahsulotlar zaharli moddalar bilan yoki biologik vositalar bilan zararlangan bo'lsa, u holda degazatsiya va dezinfeksiya qilinadi (xlorli ohak, xloramin, formalin va boshqalar).

Zararlangan joylarni va ashyolarni zararsizlantirish ishlari tamomlangandan so'ng har bir fuqaro to'liq sanitar qayta ishlodan o'tishi kerak. Bu muolaja hammomlarda, dushxonalarda yoki maxsus yuvinish joylarida amalga oshiriladi. Yuvinish chiqqandan so'ng ikki marta dozimetrik ko'rikdan o'tiladi.

Zararsizlantirish omiliga dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya jarayonlari kiradi.

Tibbiy buyum va ashyolarni degazatsiya va dezaktivatsiya qilish maxsus zvenolar yordamida amalga oshiriladi.

Barcha anjomlarga RM, ZM, BV tegmaydigan qilib to'g'ri saqlash choralari ko'rish kerak. Radioaktiv modda (RM), zaharlovchi moddalar (ZM), bakteriologik vosita (BV) bilan zararlangan dori moddalar yo'q qilinadi. Germetik idishlardagi ampula dorilar, metal yoki shisha idishdagi saqlangan dori-darmonlarni ustki qismi to'liq zararsizlantirilgandan so'ng ishlatish mumkin. Qog'ozga o'ralgan dori-darmon va bog'lov materiallari, radioaktiv zararlanishdan saqlanadi, ammo zaharlovchi moddalardan to'liq saqlana olmaydi, bunday dorilar yaroqsiz holga kelib qoladi, shuning uchun ular yo'q qilinadi.

Dezaktivatsiya deyilganda, zararlangan vositalar (kiyim-kechak, himoya vositalari, suv, texnika, transport vositalari) hamda inshootlardagi radioaktiv moddalar aktivligini yo'qotish tushuniladi. Dezaktivatsiyaning to'liq hamda qisman xili mavjud bo'lib, u asosan mexanik va fizik-kimyoviy usul bilan olib boriladi.

Mexanik usulda – radioaktiv moddalar bilan zararlangan sirt yuzalarini artish orqali yo'qotiladi.

Fizik-kimyoviy usulda esa radioaktiv moddalar turli kimyoviy eritmalar bilan yuvish orqali amalga oshiriladi. Dezaktivatsiyada suv bilan kislota va ishqorlar ishlatiladi (SF-2, OP-7, OP-10, Na₃PO₄ trilon B, shavel, limon kislotalari, ularning tuzlari).

Degazatsiya omili – zaharlovchi moddalarni parchalab, zararsiz moddalar hosil qilishi, hamda ularning miqdorini kamaytirish hisoblanadi. Degazatsiya maxsus texnikalar vositasida amalga oshiriladi. Degazatsiya qiluvchi moddalarga oksidlovchi xlorli birikmalar (gipoxloritlar, xloramin) va ishqoriy birikmalar (NaOH, soda, ammiak, ammiakli tuzlar) kiradi.

Erituvchi sifatida: suv, dixloretan, trixloretan, benzin ishlatiladi.

Degazatsiya qiluvchi eritma № 1 (5 % li geksaxlormelamin yoki 10 % li dixloramin) va eritma № 2 (2 % NaOH, 5 % monoetanolinamin va 20 % li ammiakli suv) ishlatiladi.

Dezinfeksiya – kimyoviy, fizik, mexanik va kombinatsiyalashgan usullar bilan amalga oshiriladi.

6-MAVZU: ZARARLANGANLARGA NISBATAN TIBBIY YORDAMNI TASHKIL ETISH.

Mashg'ulotning maqsadi:

1. Zararlanganlarga nisbatan tibbiy yordamni tashkil etish. Bakteriologik o'choqda ish olib borish.
2. Mashg'ulotni bajarish tartibi bilan tanishtirish.
3. Mavzuga taalluqli jadvallar, rasmlar, asboblarni ko'rsatib tushuntirish.

Ishni bajarish tartibi:

Zararlanganlarga nisbatan tibbiy yordamni tashkil etish. Bakteriologik o'choqda ish olib borish.

Odamlarga shikastlanish joyida yoki shunga yaqin joyda yordam ko'rsatish *birinchi tibbiy yordam* deyiladi. Noto'g'ri va kechiktirib yordam berish dardning zo'rayib ketishiga, sog'ayishning cho'zilib ketishiga sabab bo'ladi.

Shikastlanishning hamma turida ham birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning ahamiyati katta. Birinchi tibbiy yordam berish ishlarini uyushtirish vazifasi sanitar-drujinachilariga yuklatiladi. Ular fuqaro muhofazasi qutqaruv komandalari bilan birga ish olib boradi, shuningdek, omon qolgan odamlar ham jalb etiladi.

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish quyidagilardan tashkil topgan:

- qon oqishini to'xtatish;
- bog'lam qo'yish, suyak singanda immobilizatsiya qilish;
- sun'iy nafas oldirish;

- yurak sohasini massaj qilish;
- yonayotgan kiyimlarni o'chirish;
- og'riq qoldiruvchi dorilarni qo'llash.

Kimyoviy zaharlovchi moddalardan zaharlanish xavfi paydo bo'lganda va zaharlanganda birinchi tibbiy yordam berish uch asosiy tadbirdan:

- a) Odamni zaharli moddalar ta'siridan himoya qilish (gazniqoblar, respiratorlar qo'llash);
- b) Shikastlangan, zaharlangan odamga antidot (ziddizahar) yuborish;
- d) Shikastlanganlar (zaharlanganlar) ni tezlik bilan zaharlangan joydan olib chiqishdan iborat.

Birinchi vrach yordamini uyushtirish.

Shikastlanish o'chog'ida qutqarish ishlari olib borilgan vaqtda birinchi tibbiy yordam otryadiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- shikastlanganlarni va bemorlarni qabul qilish, ularni ro'yxatga olish, dozimetriyadan o'tkazish, qisman sanitariya obrabotkasi qilish, shikastlanganlarni tibbiy jihatdan saralash;
- shikastlanganlar va bemorlarga birinchi vrach yordami ko'rsatish, evakuatsiya qilish, iloji bo'lganda, shikastlanganlarni vaqtincha davolash, ularni evakuatsiya qilish.

Vrach brigadasi 1 ta vrach, 3 ta hamshiradan, hamshira brigadasi 1 ta hamshira va 4 ta sanitar – drujinachidan iborat bo'ladi.

Ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni uyushtirish.

Shikastlangan odamlarni ko'pchiligi ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamga muhtoj bo'ladi. Bunday tibbiy yordam ko'rsatish ishlari zararlangan shaharlar tashqarisidagi qishloq, tumanlarda tashkil etiladi. Qishloq va tuman markazlardagi kasalxonalar, dam olish uylari, sanatoriy, davolash-profilaktika muassasalarida kasalxonalar tashkil etiladi. Shuningdek, mehmonxona, yotoqxona, madaniyat uylari, dam olish lagerlarida ham kasalxonalar turlariga qarab maxsus tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida quyidagi profillashtirilgan kasalxonalar:

- saralash evakuatsiya gosptali (SEG);
- bosh kasalxona (BK);
- neyroxirurgiya (NX);
- travmatologiya (TR);
- torako – abdominal (TA);
- kuyganlar uchun (K-O);
- soni va yirik bo'g'imlari shikastlanganlar uchun (BKS);
- toksika – terapiya (TT);
- yuqumli kasalliklar (Yu);
- psixiatriya (p) kasalxonalari ochiladi.

7-MAVZU: FUQARO MUHOFAZASI TIBBIY XIZMATINING KUCHLARI VA VOSITALARI.

Mashg'ulotning maqsadi:

1. Fuqaro muhofazasi tibbiy xizmatining kuchlari va vositalari haqida tushuncha berish.
2. Mashg'ulotni bajarish tartibi bilan tanishtirish.
3. Mavzuga taalluqli jadvallar, rasmlar, asboblar, yordamchi materiallarni ko'rsatib tushuntirish.

Ishni bajarish tartibi:

Fuqaro muhofazasi tibbiy xizmatining kuchlari va vositalari.

Shikastlangan aholiga tibbiy yordam ko'rsatish uchun fuqaro muhofazasi tibbiy xizmati qator kuch va vositalarni tayyorlab qo'yadi. Ular sanitar drujinalari (SD), sanitar drujinalari otryadi (SDO), birinchi tibbiy yordam otryadi (BTYoO), ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam brigadasi (ITYoB) va otryadi (ITYoO), epidemiyaga qarshi ixtisoslashtirilgan brigada (EQIB) lardan iborat bo'ladi. Sanitar drujinasi, sanitar drujina otryadi zavod, fabrika, muassasa, kolxoz, savxoz, maktab, maxsus o'rta o'quv yurtlarida Qizil Yarim Oy jamiyatining boshlang'ich tashkilotlari

tomonidan tayyorlanadi.

Sanitar drujinasi 24 kishidan: komandir, siyosiy rahbar (politruk), aloqachi xo'jalik mudiri, shofyor hamda besh zvenoga bo'lingan 20 ta sanitar drujinachilardan iborat bo'ladi. Har bir zveno 4 kishidan iborat, ulardan biri komandir hisoblanadi. Sanitar drujinachilari maxsus dastur bo'yicha tayyorgarlikdan o'tadi, shikastlangan odamlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va ularni davolash usullarini o'rganadi.

Tinchlik davrida sanitar drujinachilari sanoat korxonalarida, o'quv yurtlarida, fermer xo'jaliklarda tabiiy ofat ro'y berganda shikastlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatadilar, aholi orasida sanitariya-profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirlarini amalga oshirishda qatnashadilar.

Aholiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish jarayonida sanitar-drujinachilar quyidagi tibbiy vositalar bilan ta'minlanadilar: beret (qalpoq), kombenzon, filtirli himoya kiyimi, rezina etik va qo'lqoplar, shaxsiy aptechka, shaxsiy paket, gazniqob, flyaga, zambil, cho'ntak fonar, sanitar sumka va shaxsiy dozimetrlar komplekti.

Sanitar sumkada:

- zararsizlantirilgan 10 sm x 5 m kattalikdagi doka – bint (10 dona);
- zararsizlantirilgan 14 sm x 7 m kattalikdagi doka – bint (5 dona);
- kompress uchun 100 grammdan ajratilgan paxta;
- og'izdan-og'izga usuli bilan sun'iy nafas oldirish uchun S simon rezina nay;
- kosinka (2 dona);
- leykoplastir;
- shaxsiy bog'lam paketi (3 dona);
- zararsizlantirilgan kichik bog'lam (2 dona);
- zararsizlantirilgan katta bog'lam (2 dona);
- 0,5 grammdan amilnitrit (10 ampula);
- antidotlar;
- to'gnog'ich (10 dona), qalam;
- tasmali rezina jgut (1 dona);
- 5 % li yod (1 ml dan 10 ampula);
- qaychi, pichoq, nashatir spirti (1 ml dan 10 ampula);
- sprits tyubiklar (5 dona) bo'ladi.

Aholi orasida yoppasiga shikastlanish ro'y berganda sanitar-drujinachilarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- shikastlanganlarni qidirib topish va ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- boshqalar bergan yordamni tekshirib ko'rish va xatosini tuzatish;
- shikastlanganlarni uchoqdan bexatar joyga olib chiqish;
- bakterial zararlanish o'chog'ida tibbiy xodimlar rahbarligida epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish;
- birinchi va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam otryadlarida, kasalxonalarda ishlash.

Birinchi tibbiy yordam otryadi dastlabki tibbiy yordam otryadi ham deb atalib (OPM) – fuqaro muhofazasi tibbiy xizmatining asosiy tuzilmalaridan hisoblanadi. U yoppasiga zararlanish o'choqlarida shikastlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

Yoppasiga shikastlanish o'chog'ida sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni tashkillashtirish va amalga oshirish maqsadida harakatdagi epidemiyaga qarshi otryad tashkil etiladi. Bu otryadlar tinchlik davrida mavjud sanitariya-epidemiologiya stansiyalari (SES), sanitariya-gigiyena, epidemiologiya, mikrobiologiya institutlari bazasida tuziladi. U bir necha bo'limlardan tashkil topgan:

- sanitariya – epidemiologiya;
- bakteriologiya, kimyo, radiologiya laboratoriyalari;
- laboratoriya bo'limi;
- dezinfeksiya bo'limi.

Harakatdagi epidemiyaga qarshi otryadning vazifalari quyidagilardan iborat:

- urush davrida bakteriologik razvetka uyushtirishdan;
- oziq-ovqat, suv, idish-tovoq, mebel, inshoot, transport va boshqa anjomlardan olingan namunalardan radioaktiv, kimyoviy zaharlovchi moddalar va yuqumli kasallik qo'zg'atuvchi mikroblar bor, yo'qligini aniqlash;
- suv manbalari, oziq-ovqat va umumiy korxonalarida sanitariya nazorati olib borish;
- yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni o'z vaqtida aniqlash;
- profilaktik emlash ishlarini uyushtirish;
- shikastlanish o'chog'ini zararsizlantirish;
- aholini sanitariya ishlovidan o'tkazish va dezinfeksiya tadbirlarini uyushtirish.

8-MAVZU: SAN. DRUJINA TUZILMASI, SAN. POST TUZILMASI, UNI TUZISH TARTIBI, QOIDALARI, VAZIFALARI. SAN. DRUJINA VA SAN. POST TUZILMALARINING JIHOZLANISHI.

Mashg'ulotning maqsadi:

1. Sandrujina va sanpost tuzilmalari, ularni tuzish tartibi, qoidalar, vazifalari.
2. Sandrujina va sanpost tuzilmalarining jihozlanishi.
3. Mashg'ulotni bajarish tartibi bilan tanishtirish.
4. Mavzuga taalluqli jadvallar, rasmlar, asboblarni yordamchi materiallarni ko'rsatib tushuntirish.

Ishni bajarish tartibi:

Sandrujina va sanpost tuzilmalari, ularni tuzish tartibi, qoidalar, vazifalari.

Sandrujina va sanpost tuzilmalari (SD, SP) fuqaro muhofazasi xizmatining harbiylashmagan qismi bo'lib, ularni tuzish favqulodda vaziyatlar vazirligining buyrug'iga asosan ob'ektlarda (korxona, tashkilot, muassasa, nodavlat tashkilotlari, mahallalarda) tuziladi.

Sanpost (SP) sandrujina (SD) otryadlarining asosiy vazifalari quyidagilar:

- zaharlanish va zararlanish uchoqlarida jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- bemorlarni parvarish qilish va aholi, hamda shikastlanganlar orasida epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazish;
- tinchlik davrida tabiiy texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar vaqtida jabrlanganlarga sog'liqni saqlash tizimi xodimlari bilan hamkorlikda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda ishtirok etish;
- profilaktik va sanitar- sog'lomlashtirish, epidemiyaga qarshi ishlarini o'tkazish.

Sandrujina, sanpost tuzilmasi mustaqil ravishda va ob'ektning boshqa tuzilmalari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Sandrujina va sanpost tuzilmasining shaxsiy tarkibi quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Sandrujina – 5 ta zveno (har bir zveno 4 kishidan iborat), drujina komandiri, ma'naviy rahbar, aloqachi (xo'jalik mudiri), shofyordan iborat (jami 24 kishi). Bir sandrujina uchun bitta yuk mashinasi yoki avtobus ajratiladi.

Sandrujinani boshqarish oson bo'lishi uchun bir necha sandrujinalar (har bir sandrujina 24 kishidan iborat) dan sanitar drujina otryadi tuziladi.

Otryad shtatiga komandir, komandir o'rinbosari, ma'naviy rahbar (mutaxassis), aloqachi zvenosi (bu 3 kishidan iborat bo'ladi: komandir aloqa zvenosi bo'yicha, aloqachi va shofyor) OSD-otryad sandrujina bitta yengil mashina va bir necha yuk mashinalari bilan jihozlanadi.

2. Sanpost 4 kishidan iborat bo'lib (boshliq va 3 ta sandrujinachi. bu tuzilma ishchi xodimlar soni kam bo'lgan ob'ektlarda tashkil etiladi).

- sandrujina va sanpost tuzilmasiga ro'yxatga olinuvchilar erkaklar 18 yoshdan 60 yoshgacha ayollar (xotin-qizlar) 18 yoshdan 55 yoshgacha bo'lib, quyidagilarni qabul qilinmaydi: harbiy zahiradagilar, 1-2 guruh nogironlari, homilador ayollar va 8 yoshga yetmagan bolasi bor ayollar.

Sanotryad, sandrujina, sanpost rahbarlari (komandirlari), fuqaro muhofazasi rahbariyati

tomonidan belgilanadi. Qizil Yarim Oy jamiyat rahbariyati bilan kelishilgan holda, bilimli faol, sog'lom intiluvchan kishi komandirlikka (sardorlikka) tayinlanadi.

Bu tuzilmaga kirgan kishilar sandrujina, sanpost tuzilmasi shaxsiy tarkibi – shu tuzilgan korxona tashkilot muassasa rahbariyati tomonidan buyruq bilan tayinlanadi.

Sandrujina tuzilmasini birinchi tibbiy yordam otryadi (BTYoO) tarkibiga kirishi uchun shu shahar yoki tuman hokimining qarori rol o'ynaydi.

Sandrujina va sanpost tuzilmasi shaxsiy tarkibining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Doimiy ravishda amaliy va nazariy bilimni dastur asosida amalga oshirish.
2. Musobaqa (учение) mashq, tayyorgarlik mashqlarida qatnashish.
3. Qo'l ostida bo'lgan asbob uskuna, anjomlardan foydalanishni bilish.
4. To'g'ri va tezkorlikda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni bilish.
5. Zararlangan, jabrlangan bemorlarni parvarish qilishni bilish.
6. Sog'liqni saqlash tizimi xodimlari bilan hamkorlikda profilaktik, sanitar-sog'lomlashtirish ishlari olib borishda faol qatnashish.
7. Doim tayyor holda bo'lish tartibini bilish.

Shu asosda sandrujina, sanpost, sandrujina otryadi komandirining majburiyati amalga oshiriladi.

Sandrujina sanpost shaxsiy tarkibining kiyimi-yagona maxsus ko'rinishga ega bo'lgan kombinezon, yoki kurtka-shimi bilan (bryuk) kirzovoy etik yoki rezina etik, beret (bosh kiyim) (Qizil Yarim Oy emblemasi qo'yilgan) va kostyumining chap yelkasiga (qo'lga) xuddi shunday belgi va rahbarlarning ko'kragiga ham shu emblemadan taqiladi. Har bir sandrujina tuzgan tashkilot-sandrujina, sanpost uchun zaruriy kiyim-kechak va jihozlar bilan ta'minlashi zimmasiga yuklatilgan.

Sandrujina va sanpost shaxsiy tarkibini tayyorlash.

Bu tuzilmalarni tayyorlash har yili tuzilmaning shu joyida maxsus dastur asosida (Respublika Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tayyorlangan) olib boriladi. Bularni o'qitish ish joyi tashkilot hisobidan (финансировать) pul mablag'i bilan ta'minlanadi va o'qitishni Qizil Yarim Oy jamiyati tashkiloti ishtirokida vrach mutaxassislar o'qitadi, amaliy tayyorlaydi.

O'qitishda: birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, bemorlarni tashish, parvarish qilish, yuqumli kasalliklar bilan ishlash choralari, epidemiyaga qarshi tadbirlar tashkil etish va dars oxirida ularning olgan bilimlarini test sinovlari yoki boshqa usul so'rovlari orqali sinash amalga oshiriladi.

Sandrujina va sanpostni tayyorlashda ikki bo'lim mavjud bo'ladi:

1. Maxsus tayyorlash: (40 soat) ish vaqtidan tashqari.
2. Maxsus taktik tayyorlash: (20 soat) ob'yekt musobaqasi sifatida (учуние) mashq sifatida amalga oshiriladi.

Sandrujina va sanpostning jihozlanishi.

(sandrujina tuzilmasi – 24 kishiga mo'ljallangan).

1. Protivogaz – 24 dona.
2. Respirator – 24 dona.
3. Himoyalovchi filtrlovchi kiyim (ZFO) komplekt – 24 dona.
4. Individual dozimetr komplekt – 1 dona.
5. Fanar (elektr) batareyali cho'ntakda olib yurish uchun – 6 dona.
6. Oyoq kiyimi rezinali yoki kirzoviye – 24 juft.
7. Paxtadan tayyorlangan kombinezon – 24 dona.
8. Qizil Yarim Oy jamiyatining emblemasi tushirilgan (bosh kiyim) beret – 24 dona.
9. Maxsus kiyim kostyum, bryuk Qizil Yarim Oy jamiyatining emblemasi yopishtirilgan chap yelka sohasida – 24 komplekt.
10. Sanitar zambel (nosilka) – 5 dona.
11. Sanitar sumka – 23 dona (Faqat guurh sardori komandirida sanitar sumka bo'lmaydi).

12. Individual aptechka – 24 dona.
 13. Individual kimyoga qarshi paket – IPP-8-24 dona.
 14. Komplekt transport shinalari – 1 komplekt.
 15. Suv solish uchun flyaga chexoli bilan birgalikda – 24 dona.
 16. Sanitar sumkani jihozlash uchun 19 turdagi turli jihozlar, dori-darmonlar bog`lov ashyolari (ro`yxati mavjud) – 23 ta sanitar sumka uchun.
- Bu dori vositalari va jihozlarni qo`llash usullari mashg`ulot vaqtida to`liq o`rgatiladi.